



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	236
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
OROL BO'YI MINTAQASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	259
Umarova Xusnora Dilmurod qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	264
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
INNOVATSION KLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI.....	269
Quliyev Begimqul Melikovich	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	276
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
АГРОЭКОТУРИЗМ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ СЕЛЬСКИХ ТЕРРИТОРИЙ УЗБЕКИСТАНА.....	281
Хайдаров Ойбек Зоирович	
THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON SERVICE QUALITY AND CUSTOMER SATISFACTION IN THE HOUSEHOLD SERVICE SECTOR: EMPIRICAL EVIDENCE FROM SAMARKAND REGION	287
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Yuldosheva Zulfizar Sayfullayevna	
DEVELOPMENT OF INTERACTIVE MODELING METHODS FOR THE SYNTHESIS OF INTELLIGENT CONTROL SYSTEMS FOR TECHNICAL OBJECTS IN THE DIGITAL ECONOMY	293
Mamutova Aygul Kalmurzaevna	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH MASALALARI.....	298
Abdurazakova Nasiba Sultanovna	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TRANSFORMATSIYASI VA UNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	303
Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	



YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TRANSFORMATSIYASI VA UNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI



Tashmuxeimedova Yaya Atxamovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrası katta o'qituvchi, PhD.

Email: yayrusha@tsue.uz

ORCID: 0009-0002-0826-3991

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligi samaradorligi va uning davlat moliyaviy xavfsizligiga ta'siri baholandi. 2018–2025-yillar statistik ko'rsatkichlari asosida soliq tushumlarining YalMdagi ulushi lineer regressiya va trend tahlili yordamida hisoblandi. Natijalar ko'rsatdiki, ko'rsatkich barqaror o'sishga ega ($R^2=0,91$) va 2030-yilga borib 14,1 % atrofida bo'lishi prognoz qilinadi. Kengaytirilgan ekonometrik model raqamlashtirishning ijobiy, yashirin iqtisodiyot va inflyatsiyaning salbiy ta'sirini tasdiqladi. Xulosa o'rinda, soliq ma'muriyatchiligi fiskal barqarorlik va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil sifatida qayd etiladi.

Kalit so'zlar: soliq ma'muriyatchiligi, moliyaviy xavfsizlik, regressiya, trend tahlili, raqamlashtirish, yashirin iqtisodiyot, inflyatsiya, fiskal siyosat, YalM, prognoz.

Abstract. This study evaluates the efficiency of tax administration in Uzbekistan and its impact on national financial security. Based on statistical data for 2018–2025, the share of tax revenues in GDP was calculated using linear regression and trend analysis. The findings indicate a stable upward trend ($R^2=0.91$) with a projected value of around 14.1% by 2030. The extended econometric model confirmed the positive effect of digitalization and the negative effects of the shadow economy and inflation. The study concludes that tax administration is a key factor in ensuring fiscal stability and financial security.

Key words: tax administration, financial security, regression, trend analysis, digitalization, shadow economy, inflation, fiscal policy, GDP, forecasting.

Аннотация. В данном исследовании оценивается эффективность налогового администрирования в Узбекистане и его влияние на финансовую безопасность государства. На основе статистических данных за 2018–2025 годы доля налоговых поступлений к ВВП рассчитана методом линейной регрессии и тренд-анализа. Результаты показали устойчивый рост показателя ($R^2=0.91$) с прогнозом на уровне 14,1% к 2030 году. Расширенная эконометрическая модель подтвердила положительное влияние цифровизации и отрицательное влияние теневой экономики и инфляции. В заключение налоговое администрирование рассматривается как важный фактор обеспечения фискальной стабильности и финансовой безопасности.

Ключевые слова: налоговое администрирование, финансовая безопасность, регрессия, тренд-анализ, цифровизация, теневая экономика, инфляция, фискальная политика, ВВП, прогноз.

KIRISH

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri — davlat moliyaviy tizimini mustahkamlash va soliqlarni boshqarish samaradorligini oshirishdan iboratdir. Mazkur yo'nalishda davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, soliqlarning to'g'ri yig'ilishini ta'minlash va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish muhim o'rinni egallaydi.



tutadi. “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham “soliq ma‘muriyatchiligini raqamlashtirish, soliq yukini optimallashtirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish” ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq ma‘muriyatchiligi samaradorligi masalasi bo‘yicha xalqaro va milliy miqyosda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Jahon banki (World Bank) va Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) ekspertlari soliq ma‘muriyatchiligini modernizatsiya qilishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, soliq to‘lovchilarning xulq-atvorini tahlil qilish hamda soliq xatarlarini boshqarish tizimini yo‘lga qo‘yish muhimligini ta‘kidlaydi [2].

O‘zbekistonlik olimlardan A. S. Jo‘rayev, B. I. Isroilov, S. K. Xudoyqulov, U. A. Radjabov, I. Niyozmetov, Sh. Toshmatov, O. Abduraxmonov, B. E. Toshmuradova, N. Xaydarov, B. B. Ibragimovlarning tadqiqotlarida soliq tizimi va soliq munosabatlarini tartibga solishni takomillashtirish hamda soliqqa tortish va soliq nazorati masalalariga e‘tibor qaratilgan.

So‘nggi yillarda “Soliq kodeksi” (yangi tahriri 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan) [3], “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [4] hamda Prezidentning 2023-yil 27-maydagi PQ-202-sonli qarori (“Soliq ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”) mazkur yo‘nalishdagi huquqiy asoslarni yanada kuchaytirgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot quyidagi ilmiy yondashuvlarga asoslangan:

Tizimli tahlil usuli – soliq ma‘muriyatchiligi tizimini davlat moliyaviy xavfsizligi bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish;

Statistik tahlil – O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi, Davlat statistika qo‘mitasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlari asosida amaldagi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish;

Grafik va jadval usullari – tahlil natijalarini vizual ko‘rinishda ifodalash.

Tadqiqotda 2018–2025-yillar uchun O‘zbekistonning soliq tushumlari va yalpi ichki mahsuloti (YalM) bo‘yicha statistik ma‘lumotlar asosida regressiya va trend tahlil usullari qo‘llanildi. Ma‘lumotlar manbasi sifatida Jahon banki, IMF, The Global Economy hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ochiq ma‘lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq ma‘muriyatchiligi samaradorligini hamda undagi muammolarni aniqlashda, albatta, moliyaviy ko‘rsatkichlar muhim sanaladi. Ularni o‘rganish va tahlil qilish orqali soliq ma‘muriyatchiligidagi moliyaviy xavfsizlik qay darajada ta‘minlanganini aniqlashimiz, tahlil qilishimiz va zaruriy chora-tadbirlarni belgilashimiz mumkin. Quyidagi jadvalda soliq ma‘muriyatchiligi samaradorligining so‘nggi yillardagi o‘zgarish dinamikasini ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval. Soliq ma‘muriyatchiligi samaradorligining hozirgi holati [5; 6]

Ko‘rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	O‘sinh (%)
Davlat budjeti daromadlari (trln so‘m)	64,3	78,5	128,4	156,2	181,7	212,4	242,0	+276 %
Soliq tushumlarining YAIMdagi ulushi (%)	11,0	11,2	24,5	25,8	27,1	28,4	29,3	+18,3
Elektron hisob-fakturalar soni (mln dona)	3	11	48	126	211	297	365	+12000 %
Yashirin iqtisodiyot ulushi (YAIMga nisbatan, %)	52	49	45	41	37	35	32	–20

Ushbu ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi to‘rt yilda soliq ma‘muriyatchiligi sezilarli darajada takomillashgan. Ayniqsa, raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan audit tizimi va soliq to‘lovchilarning reyting baholash tizimining joriy etilishi soliq intizomini oshirgan.

Quyidagi jadvalda esa O‘zbekistonda so‘nggi yillarda soliq tushumlarining YalMga nisbati (%) ko‘rsatilgan bo‘lib, uning yillar kesimidagi o‘zgarish dinamikasini ko‘rishimiz mumkin (2-jadval).



2-jadval. 2018–2024-yillarda soliq tushumlarining YalMga nisbati (%) [7; 8]

Yil	Soliq tushumlari (trln so'm)	YalM (trln so'm)	Soliq/YalM (%)
2018	78.4	709.2	11.05
2019	93.7	838.4	11.2
2020	104.6	1 001.0	10.5
2021	123.9	1 155.6	10.7
2022	152.5	1 321.8	11.5
2023	165.8	1 438.7	11.53
2024	199.6	1 632.4	12.2
2025 (prognoz)	228.7	1 820.0	12.6

Yuqoridagi 2018–2025-yillar kesimida olingan ma'lumotlar orqali soliq tushumlarining o'zgarish dinamikasi bo'yicha "trend tahlili" amalga oshiriladi. Buning uchun lineer regressiya modelini tuzish lozim. Ushbu modelni tanlash sababi shundaki, lineer regressiya modeli soliq siyosatining natijadorligini matematik jihatdan asoslash, samaradorlikni baholash va kelajakni prognozlash uchun eng qulay vositalardan biridir. U davlat moliyaviy xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi analitik mexanizm sifatida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Olingan 2018–2025-yillardagi ma'lumotlar asosida lineer regressiya modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$Y_t = \alpha + \beta_t + \varepsilon_t$$

Bu yerda,

Y_t – soliq tushumlari/YalM (%)

t – yil (1=2018, 2=2019, ...)

α — boshlang'ich qiymat (intercept),

β — o'sish tezligi (trend),

ε_t — xatolik (tasodifiy omillar).

Hisoblangan qiymatlar (Excel regressiya natijasi asosida):

$$Y_t = 11.05 + 0.26t$$

Hisob natijasiga ko'ra $R^2 = 0.91$. Bu shuni anglatadiki, model soliq tushumlarining YalMga nisbati o'zgarishining 91 % qismini izohlay oladi, ya'ni juda yuqori aniqlikka ega.


Olingan ma'lumotlar asosida lineer regressiya modeli tuzildi: $Y_t = 11.05 + 0.26t$ ($R^2 = 0.91$). Ushbu model 2018–2025-yillardagi soliq tushumlarining YalMga nisbati barqaror o'sishini tasdiqlaydi. Endi ushbu model yordamida 2026–2030-yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi (3-jadval).

3-jadval. 2026–2030-yillarda soliq tushumlarining YalMga nisbati prognozi [9]

Yil	Prognoz (Soliq/YalM %)	O'sish (foiz punkt)
2026	12.9	+0.3
2027	13.2	+0.3
2028	13.5	+0.3
2029	13.8	+0.3
2030	14.1	+0.3

Prognoz natijalariga ko'ra, 2030-yilga borib soliq tushumlarining YalMga nisbati 14,1 % atrofida bo'lishi kutilmoqda. Bu esa budjet barqarorligini mustahkamlash, tashqi qarzga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish hamda "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlash imkonini beradi.

Ushbu prognoz holatini grafik ko'rinishida izohlaydigan bo'lsak, quyidagicha natijani ko'rishimiz mumkin (1-rasm):



1-rasm. 2018–2030-yillar soliq tushumlarining YAIMga nisbati prognoz grafigi (trend asosida) [10]

Grafikdan ko'rinadiki, 2018–2030-yillarda soliq tushumlarining YAIMga nisbati barqaror o'suvchi trendga ega. Bu raqamlashtirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va ma'muriy islohotlar bilan bevosita bog'liqdir.

Agar biz faqat vaqt omilini emas, balki boshqa omillarni ham qo'shadigan bo'lsak (masalan, raqamlashtirish, yashirin iqtisodiyot, inflyatsiya), u holda formulani quyidagicha kengaytirishimiz zarur bo'ladi (4-jadval):

$$Y_t = \alpha + \beta_1 DIG_t + \beta_2 SHADOW_t + \beta_3 INF_t + \epsilon_t$$

4-jadval. Soliq ma'muriyatchiligi transformatsiyasining moliyaviy xavfsizlikka ta'siri

Ko'rsatkich	Ta'rif	Belgilangan ta'sir yo'nalishi	Qiymat
(DIG _t)	Soliq tizimida raqamlashtirish darajasi	+ (samaradorlik oshadi)	$\beta_1 \approx +0.18$
(SHADOW _t)	Yashirin iqtisodiyot ulushi (%)	– (soliq bazasi torayadi)	$\beta_2 \approx -0.25$
(INF _t)	Inflyatsiya darajasi (%)	– (soliq real qiymatiga bosim)	$\beta_3 \approx -0.07$

Hisoblangan natijalarga ko'ra (so'nggi 6 yillik faktlar asosida):

$\beta_1 \approx 0,18$ — raqamlashtirish 1 punktga oshsa, soliq/YAIM $\sim 0,18$ punkt oshadi;

$\beta_2 \approx -0,25$ — yashirin iqtisodiyot 1 %ga oshsa, soliq/YAIM $\sim 0,25$ punkt pasayadi;

$\beta_3 \approx -0,07$ — inflyatsiya 1 %ga oshsa, soliq/YAIM $\sim 0,07$ punkt kamayadi.

Bu natijalar davlat moliyaviy xavfsizligi uchun ikki tomonlama xulosa beradi:

- raqamlashtirish va ma'muriy islohotlar moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlaydi;
- yashirin iqtisodiyot va yuqori inflyatsiya xavf omili sifatida qoladi.

Olingan ekonometrik natijalar soliq tushumlarining YAIMdagi ulushiga ta'sir etuvchi omillar yo'nalishining iqtisodiy mantiqqa mos ekanini tasdiqlaydi. Xususan, raqamlashtirish darajasining oshishi ($\beta_1 \approx 0,18$) soliqqa tortish quvvatini kengaytirib, fiskal barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlangan bo'lib, bu soliq ma'muriyatchiligida shaffoflik, nazorat va hujjat aylanishi samaradorligining ortishi bilan izohlanadi. Boshqa tomondan, yashirin iqtisodiyot ulushi ($\beta_2 \approx -0,25$) hamda inflyatsiya darajasi ($\beta_3 \approx -0,07$) soliq tushumlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, fiskal resurslarning kamayishi va davlat moliyaviy xavfsizligining zaiflashuviga olib keluvchi xavf omillari sifatida namoyon bo'ladi. Demak, amaliy jihatdan mazkur ko'rsatkichlar raqamlashtirish va ma'muriy islohotlarning davom ettirilishi ijobiy fiskal samara berishini, yashirin iqtisodiyot va yuqori inflyatsiyani kamaytirish esa davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda ustuvor yo'nalish bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada tahlil qilinganidek, O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligi huquqiy-strategik poydevorga ega: "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va boshqa amaliy dasturlar soliq ma'muriyatchiligi jarayonlarini transformatsiyalashni belgilagan. Bugungi kunda O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligi sohasida sezilarli



yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, hali to'liq samaradorlikka erishilmagan. Shu sababli mamlakat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish uchun quyidagi takliflar beriladi:

1. Soliq organlari faoliyatida "Smart Tax" konsepsiyasini joriy etish (sun'iy intellekt asosida soliq xatarlarini tahlil qilish).
2. Soliq to'lovchilar uchun "raqamli maslahat markazlari"ni tashkil etish.
3. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda bank ma'lumotlarini integratsiyalashgan tizimga kiritish.
4. Hududiy soliq boshqarmalari uchun KPI (ko'rsatkichlar tizimi)ni ishlab chiqish.
5. Soliq adolatligi va imtiyozlar siyosatini takomillashtirish, ya'ni soliq imtiyozlari berilgan holatlarda ularning budjetga ta'siri hamda soliq yukining teng taqsimlanishi bo'yicha monitoringni kuchaytirish.
6. Tushumlarni prognozlash va monitoringni takomillashtirish:
 - soliq tushumlari bo'yicha ilmiy-amaliy bazani kengaytirish, ma'lumotlar bazasi va statistika sifatini oshirish;
 - soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini o'lchash mezonlarini ishlab chiqish va muntazam monitoringni yo'lga qo'yish orqali yanada takomillashtirishga erishish mumkin, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. World Bank. Tax revenue (% of GDP). <https://data.worldbank.org/indicator/GC.TAX.TOTL.GD.ZS?locations=UZ>
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahrir, 2020). <https://lex.uz/docs/4676073>
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisobotlari (2024-yilning 1-yarim yilligi). <https://www.mf.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ochiq ma'lumotlar portali. <https://www.soliq.uz>
6. TheGlobalEconomy – Uzbekistan Tax Revenue % of GDP.
7. Atkhamovna, T. Y. (2024, December). TAX POLICY IN THE DEVELOPMENT OF BUSINESS ACTIVITY. In Russian-Uzbekistan Conference (pp. 170–173).
8. Tashmuxamedova, Y. (2024). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ SIYOSATINING ROLI. Modern Science and Research, 3(12), 1115–1121.
9. ТАШМУХАМЕДОВ, Д., & ТАШМУХАМЕДОВА, Я. ПУТИ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ ЗА ВНЕШНЕТОРГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ. ПОЛИТЕХ-ПРЕСС КОНФЕРЕНЦИЯ: ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ ИНЖЕНЕРНАЯ ЭКОНОМИКА И ИНДУСТРИЯ 6.0 (ИНПРОМ-2025), Санкт-Петербург, 27–30 апреля 2025 года. Организаторы: Санкт-Петербургский политехнический университет Петра Великого.
10. Tashmuxamedova, Y. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida o'zbekistonda soliq tizimi xavfsizligini ta'minlash. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(12).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>